

VII. ISTE'MOL BOZORI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

2026-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 776 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 128 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 648 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6 678,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 118,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 728,1 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 139,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 949,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 369,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 151,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)
(2026-yil yanvar–mart)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
2026-yil yanvar-mart, foiz hisobida




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 199 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 28 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 171 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 867,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 369,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 57,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 69,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega Olot (73,4 m.), Jondor (38,2 m.), Qorako'1 (13,5 m.), Romitan (13,1 m.), Shofirkon (10,9 m.) tumanlarida va Kogon shahar (8,4 m.) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘shish sur‘atlari (foizda)




UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 540 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 534 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 493,0 mlrd so‘mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o‘shish sur‘atlari, foizda



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochokalari, kredit kartochokalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlarini o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.